

IMOM AXSIKATIYNING USULIY MEROsi: “AL-MUNTaxAB” ASARI VA UNGA YOZILGAN SHARHLAR

*Vohidov Hasanboy
Toshkent islom instituti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hanafiy fiqhining asosiy usuliy matnlaridan biri bo‘lgan al-Muntaxab al-Ḥusami asarining muallifi Ḥusamuddin al-Axsikati shaxsi, ushu asarning yozilish maqsadi, ilmiy mazmuni, unga yozilgan sharhlari an’anasi va zamonaviy tadqiqotlarda tutgan o‘rni yoritiladi. Asarning ilmiy qiymati va fiqhiy uslubiy tadqiqotlar uchun manba sifatida ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ḥusamuddin al-Axsikati, al-Muntaxab al-Ḥusami, usul al-fiqh, Hanafiy mazhabi, sharh an’anasi, ilmiy tadqiqot.

Kirish

“Al-Muntaxab al-Xusomiy” asarining yozilish tarixi

Bu bobda “Al-Muntaxab al-Xusomiy” kitobi haqida va bu kitobni ulamolar turli nom bilan ataganlari haqida so‘z yuritiladi. Undan so‘ng bu kitobning ahamiyati, uning hanafiy mazhabidagi mu’tamad usul al-fikh kitoblari orasidagio‘rni, qo‘lyozma nusxalari va unga yozilgan sharhlari haqida ma’lumot beriladi.

Kitobning nomi: Muallif bu kitobiga nom qo‘ymagan va unga muqaddima ham yozmagan. Lekin olimlar bu kitobga mos keladigan turli nomlar bilan ataganlar. Ular quyidagilar:

1. “Al-Muntaxab fi usul al-mazhab”. Bu nom juda ko‘p manbalarda va ba’zi qo‘lyozmalarda shunday zikr qilingan.

2. “Al-Muxtasar fi usul al-fiqh”. Bu nomni Imom Laknaviy “Al-Muxtasar fi usul al-fiqh al-ma’ruf bil-Muntaxab al-husomiy”, deb atagan.

3. “Al-Muxtasar”. Kurashiy: “Xusomiddin Al-Muxtasarning sohibidir”, dedi. Qutlug’bug’o: “Xusomiddin Axsikatiyning usul al-fiqhda “Al-Muxtasar” nomli kitobi bor”, degan.

4. “Al-Muntaxab”. Toshkuprizoda: “Axsikatiyning “Al-Muntaxab” nomli kitobi bor”, dedi.

5. “Usul al-fiqh”. Bu kitobning ba’zi qo‘lyozma nusxalari g‘ilofida “Usul al-fiqh li Muhammad Xusomiddin Axsikatiy”, deb yozilgan.

6. “Axsikatiy fiy usulil fiqh”. Bu kitobning ba’zi nusxalari gilofida ushu nom kichik xatda yozilgan. Boshqa nusxada esa “Axsikatiy fil usul”, deb yozilgan.

7. “Al-Muntaxab al-Xusomiy”. Kitob ushu nom bilan ulamolaro‘rtasida mashhur bo‘lgan. Laknaviy ham shunday nom bilan zikr qilgan va shunday nom bilan keltirgan.

Ushbu maqolada muallif shaxsi, asarning ilmiy mazmuni, unga yozilgan sharhlari va zamonaviy tadqiqotlardagi ‘rni tahlil qilinadi.

Adabiyotlarni o‘rganish

Ilm ahli tarafidan Husamuddin al-Axsikatiy islam ulamolari tomonidan uchinchi toifa mujtahidlar sirasiga kiritilganligi bekorga emas. Zero, manbalarning xabar berishicha, u zot hofizi Qur’on bo‘lishi bilan birga, kalom ilmi va usul al-fiqh bobida nihoyatda chuqr ilmgaga ega edilar.

Bugungi kunda alloma qalamiga mansub ikki asar — “Tahqiq al-Husamiy” (Husamiy dalillari) va “Muxtasar al-Husamiy” (Husamiy qisqartmasi) asarlarining qo‘lyozma nusxalar o‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanadi. Bundan tashqari, “Muxtasar al-Husamiy” asarining qo‘lyozmalarini turli G‘arb va Sharq mamlakatlari dagi xazinalarda ham mavjud.

Ayni paytda, ko‘plab mualliflarning mazkur asarga bitilgan sharhlari ham jahonning qator mamlakatlari qo‘lyozmalar xazinalarida saqlanmoqda.

Allomaning bizgacha yetib kelgan asarlari ichida “Muntaxab al-Husamiy” (Husamiyning tanlanganlari) nomli asari juda mashhur hisoblanadi.

U nihoyatda qulay uslubda yozilganligi bois, mazkur sohadagi eng keng foydalaniладigan asarlardan bo‘lib kelgan.

Hanafiy mazhabida fiqh ilmi asoslari darslarida talabalar bu asarni albattao‘rganganlar va uni yod bilishlari shart hisoblangan.

al-Muntahab al-Husami haqida ilk ma’lumotlar turli tarjima holatlar va fiqhiy usul bo‘yicha yozilgan tarixiy manbalarda uchraydi. Hanafiy usulchilari, xususan, al-Sarakhs, al-Bazdawi va al-Nasafiy kabi olimlarning asarlari bilan tematik jihatdan bog‘liq bo‘lgan bu matn ularning ilmiy merosini mujassamlashtirgan. Sharhlar orasida eng mashhuri – Kashf al-Asrar bo‘lib, u al-Muntahab matnining keng izohi sifatida tan olingan.

Asosiy qism

Muallif va asarning qisqacha tavsifi

Ilm ahli tarafidan Husamuddin al-Axsikatiy islam ulamolari tomonidan uchinchi toifa mujtahidlar sirasiga kiritilganligi bekorga emas. Zero, manbalarning xabar berishicha, u zot hofizi Qur’on bo‘lishi bilan birga, kalom ilmi va usul al-fiqh bobida nihoyatda chuqr ilmgaga ega edilar.

Husamuddin al-Axsikatiy 12–13-asrda yashab ijod qilgan Hanafiy olim bo‘lib, qadimgi axsikaat shaxrida tavallud topgan. tug‘ilgan yili haqida ma’lumotlar kelmagan. Buxoroda ilmiy faolyat olib borib, o‘sha yerda hijriy 644 yil. milodiy 1247 yilda vafot etgan. Axsikatiyning qabri yeti qozixon oldida joylashgan. U yozgan al-Muntaxab al-Husami asario‘z davrida usul ilmidagi dolzarb masalalarni bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa qiyos, istihsan va istidlol kabi asosiy hanafiy usulini chuqr tahlil etilgan.

Sharhlar an'anasi

Asarning o'rganilishi va keng tarqalishida unga yozilgan sharhlar muhim rolo'ynagan.

Ulamolarning bu kitobga aytgan maqtovlari: Juda ko'p ulamolar bu kitobga maqtov so'zlarini aytganlar. Jumladan, Leknaviy bu kitob haqida shunday degan: "Men Xusomuddin Axsikatiyning "Al-Muntaxab al-Xusomiy" nomli mashhur muxtasarinio'qib chiqdim. Bu kitob usul al-fiqh ulamolari ichida mu'tabar hisoblanadi.

Xoji Xalifa: "Bu kitob ortiqchalikdan xoli, fasllar to'liq bayon qilingan, ziddiyat va qarashlar chuquro'rganilgan, durr-gahvarlari go'zal tarzda terilgan", dedi.

Ismoil Poshsho: "Xusomiddin Axsikatiyning tasnifotlaridan biri bo'lgan "Al-Muntaxab fiy usulil mazhab" kitobi ulamolar nazdida mashhurdir", degan.

Bu kitobga sharh yozganlardan biri bo'lgan Abdulaziz Buxoriy (730/1330 vaf.) bu kitob haqida: "Bu kitobo'zining go'zal tartibi, chiroyli uslubi, ortiqchalikdan xoli ekani bilano'z bobida barcha muxtasar kitoblardan ustun hisoblanadi. Shuning uchun bu asar yaqinu uzoqdagi, Sharqu G'arbdagi barcha musulmon olamiga yetib borib tarqaldi", degan.

Ulamolar "Al-Muntaxab" degan nomni "mashhur", "ma'ruf", "mu'tabar" deb ta'riflaganlar.

Doktor Valiyiddin Solih al-Farfur shunday deganlar: "Ushbu kitob hanafiya usuli borasida yozilgan kitoblarning eng manfaatli hamda muxtasaridir. Lekin buning muxtasarligi boshlang'icho'quvchiga tushunishda biroz qiyinchilik tug'diradi".

Abdulaziz al-Buxoriy rahmatullohi alayh ham ushbu "Muntaxab" kitobini "Muxtasarlikda boshqa kitoblardan ustun. Shu bilan birga, matn va iboralari go'zal hamda yengil", deb ta'riflaganlar.

Hoji Xalifao'zlarining "Kashfuz-zunun" kitoblarida shunday deydi: "Muntaxab" kitobi fazilatlar yashiringan, fasllari ravshan, iboralari durru marjon shodalaridek".

Bu kitobga yozilgan sharhlarning ko'pligi

Olimlar va shorehlar ushbu "Al-Muntaxab" kitobiga katta qiziqish bildirganlar. Shuning uchun ham bu kitobga yozilgan sharhlarning sonio'n oltitaga yetgan. Ular ahamiyati katta bo'limgan kitobga bu darajada qiziqish bildirmaydilar. Hoji Xalifao'zining "Kashfuz-zunun" kitobida "Al-Muntaxab al-Xusomiy" asarining ahamiyatini vasflab bo'lgach, shunday deydi: "Insonlar bu kitobni'o'rganish vao'rgatishga qattiq kirishdilar va uni yangilash va bahs qilishga berilib ketdilar".

Hoji Xalifaning bu so'zi ushbu kitob ahli ilmo'rtasida keng tarqalganiga dalolat qiladi. Chunki insonlar usul ilmida foydasi kam va martabada turadigan kitoblarga bunday e'tibor berishmaydi. Demak, bu asar mu'tabar hisoblanadi.

Ilmiyo‘rganilishi

Zamonaviy tadqiqotlar, xususan, Markaziy Osiyo va Hindiston olimlari tomonidan olib borilgan ishlar asarning fiqhiy-metodologik yondashuvlarini qayta baholashga olib kelgan. al-Muntaxab hozirda doktorlik dissertatsiyalarida, maqolalarda va akademik izlanishlarda manba sifatida faol qo‘llanmoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda matnning nashrlari va tahliliy izohli tarjimalari ham paydo bo‘ldi.

Xulosa

al-Muntaxab al-Ḥusami asari Ḥanafiy fiqhida chuqur ma’nolarni anglash uchun muhim manba hisoblanadi. Muallif Ḥusamuddin al-Asikatiio‘z davrining yetuk usulshunosi bo‘lib, uning merosi zamonaviy ilm-fan uchun ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Asarning sharhlar an’anasi va ilmiyo‘rganilishi uni nafaqat tarixiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb etadi.

Muntaxab al-husamiy asarigao‘n oltitadan ziyod sharh yozilishi ham qanchalik muhim manba ekanini ko’rsatadi. Bu asar o;z davrida ham undan keyin ham juda ko’plab qiziqish bilan o;rganilgan va o;rgatilib kelinyabi. Qolaversa darslik sifatida islom bilim yurtlarida o‘qitilyabdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. al-Ahsikathi, Husamuddin. al-Muntaḥab al-Ḥusami (qo‘lyozma va nashr etilgan matnlar asosida).
2. al-Bukhari, ‘Abd al-‘Aziz. Kashf al-Asrar fi Sharḥ al-Muntaḥab.
3. al-Sarakhsī, Muḥammad ibn Aḥmad. Uṣūl al-Sarakhsī.
4. Wael Hallaq. A History of Islamic Legal Theories. Cambridge University Press, 1997.
5. M. Taqi ‘Usmani. Uṣūl al-Ifta’ wa Adabuhu.
6. Ziyovuddinov, H. "Hanafiy Usul Ilmida Qiyyos Talqini", Islomshunoslik Jurnali, 2023.